

SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR

*Isroilov Davronbek Dilshodbek o'g'li**Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi**To'raqulov Shoyusuf**Andijon davlat pedagogika instituti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA

Shaxsga qarshi jinoyatlar jamiyatda insonning asosiy huquqlari va erkinliklariga tahdid soladigan jiddiy huquqbuzarliklardir. Ushbu maqolada shaxsga qarshi jinoyatlar turlari, ularning sabab va oqibatlari, shuningdek, bunday jinoyatlarning oldini olishda huquqiy va ijtimoiy choralar ko'rib chiqiladi. Mazkur maqola jinoyatlarga qarshi kurashni kuchaytirish va shaxs xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan takliflarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: shaxsga qarshi jinoyatlar, shaxsiy huquq va erkinliklar, hayotga qarshi jinoyatlar, sog'liqqa qarshi jinoyatlar.

ANNOTATION

Crimes against the individual are serious offenses that threaten the basic rights and freedoms of a person in society. This article will consider the types of crimes against the individual, their causes and consequences, as well as legal and social measures in the Prevention of such crimes. This article will promote proposals aimed at strengthening the fight against crimes and ensuring the safety of the individual.

Keywords: crimes against the individual, personal rights and freedoms, crimes against life, crimes against health.

АННОТАЦИЯ

Преступления против личности — это серьезные правонарушения, угрожающие основным правам и свободам человека в обществе. В данной статье рассматриваются виды преступлений против личности, их причины и последствия, а также правовые и социальные меры по предупреждению таких преступлений. В данной статье выдвигаются предложения, направленные на усиление борьбы с преступностью и обеспечение безопасности личности.

Ключевые слова: преступления против личности, права и свободы личности, преступления против жизни, преступления против здоровья.

Shaxsga qarshi jinoyatlar insonning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati va erkinligiga tahdid soluvchi eng jiddiy huquqbuzarliklardan hisoblanadi. Bunday jinoyatlar nafaqat jabrlanuvchining shaxsiy hayotiga, balki butun jamiyat barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi globallashuv va urbanizatsiya

davrida shaxsga qarshi jinoyatlar ko'lamini kengaytib, ularning oldini olish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shaxsga qarshi jinoyatlar turlari ko'p qirrali bo'lib, ular qotillik, tan jarohati yetkazish, zo'ravonlik, tuhmat va boshqa shakllarda namoyon bo'ladi. Ushbu jinoyatlar jamiyatda ijtimoiy notinchlikni keltirib chiqarib, davlatning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining maxsus qism birinchi bo'limi "Shaxsga qarshi jinoyatlar" deb nomlanadi. Va ushbu bo'limda shaxsga qarshi jinoyatlarning turlari yoritib berilgan. Shaxsga qarshi jinoyatlar deganda, shaxsning hayoti, sog'lig'i, jinsiy erkinligi, ozodligi, sha'ni va qadr-qimmat, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari hamda oila, yoshlar va voyaga yetmaganlarning manfaatlarini muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan ijtimoiy xavfli qilmishlar tushuniladi. Shaxsning huquq va erkinliklari huquqning turli sohalarining normalari bilan himoya qilinadi, lekin jinoyat qonunlarida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, huquqning bu sohasi javobgarlikni qo'llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi maxsus qismi birinchi bo'limi "Shaxsga qarshi jinoyatlar" deb nomlanishi haqida yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ushbu bo'lim shaxsga qarshi jinoyatlarning turlarini o'z ichiga olgan.

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 3.5-moddasida, «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt»ning 6, 7, 9, 10, 11-moddalarida insonning yashash huquqi, qadr-qimmat, ozodligi va xavfsizligi, sha'ni va obro'yini himoya qilish kabi huquqlari mustahkamlangan. Bu xalqaro huquqiy normalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ham asosini tashkil qiladi. Shaxsning huquq va erkinliklari huquqning turli sohalarining normalari bilan himoya qilinadi, lekin jinoyat qonunlarida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, huquqning bu sohasi javobgarlikni qo'llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi. Jinoyat kodeksining "Shaxsga qarshi jinoyatlar" bo'limida hayotga, sog'liqqa qarshi, hayot yoki sog'liq uchun xavfli, jinsiy erkinlikka, oilaga, yoshlarga va axloqqa, shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyatlar jamiyat uchun jiddiy xavf tug'diradi. Jinoyat kodeksining maxsus qismi birinchi bo'limida shaxsga qarshi jinoyatlarning bir necha turi uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo'lib, ular bevosita obyekti bo'yicha quyidagi guruhlariga ajratilgan:

- 1) hayotga qarshi jinoyatlar;
- 2) sog'liqqa qarshi jinoyatlar;
- 3) hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar;
- 4) jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar;
- 5) oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar;

6) shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar;

7) fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VII bobi "Shaxsiy huquq va erkinliklar" deb nomlanadi. 25-moddada "Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir. O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi"².

Jinoyat kodeksida:

MAXSUS QISM

BIRINCHI BO'LIM

SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR

I bob. Hayotga qarshi jinoyatlar

97-modda. Qasddan odam o'ldirish

Qasddan odam o'ldirish —

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish, ya'ni:

a) ikki yoki undan ortiq shaxsni;

b) homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolni;

v) aybdorga ayon bo'lgan ojiz ahvoldagi shaxsni;

g) o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini;

d) boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda;

e) ommaviy tartibsizliklar jarayonida;

j) o'ta shafqatsizlik bilan;

z) nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda;

i) tamagirlik niyatida;

k) milliy yoki irqiy adovat zahirida;

l) bezorilik oqibatida;

m) diniy taassublar zahirida;

n) inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olish yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida;

o) boshqa biror jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida;

p) bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoxud o'sha guruh manfaatlarini ko'zlagan holda;

r) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

s) o'ta xavfli retsidivist tomonidan qasddan odam o'ldirilishi — o'n besh yildan

¹ <https://api.ziynet.uz/uploads/books/459675/5af510f270565.pdf>

² <https://lex.uz/docs/-6445145>

yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi.

98-modda. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish

Jabrlanuvchi tomonidan qilingan g'ayriqonuniy zo'rlik yoki og'ir haqorat, shuningdek uning boshqa g'ayriqonuniy harakatlari tufayli to'satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish — ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

99-modda. Onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi

Onaning o'z chaqalog'ini tug'ish vaqtida yoki tug'ilishi hamon qasddan o'ldirishi — bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

100-modda. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish — uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi³.

Hayotga qarshi jinoyatlar – inson hayotiga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlardir. Hayotga qarshi jinoyatlarning turdosh obyekti boshqa shaxs hayotini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Hayotga qarshi jinoyatlarning obyektiv tomoni qonunga xilof ravishda boshqa shaxsning hayotidan mahrum qilishda ifodalanadi. Odatda, inson hayotidan mahrum qilish jismoniy ta'sir o'tkazish orqali sodir etiladi, biroq u ruhiy ta'sir (qo'rqitish) o'tkazish yo'li bilan ham sodir etilishi mumkin. Xususan, bunda harakat huquqqa xilof ravishda boshqa shaxs hayotidan mahrum qilishga olib keluvchi jabrlanuvchiga bevosita jismoniy (masalan, har qanday qurol, ashyodan foydalanish, bo'g'ish, kuydirish, zaharlash, elektr toki bilan ta'sir ko'rsatish, o'ta issiq yoki o'ta sovuq havoda ochiq yerda qoldirish va h.k.) yoki ruhiy (og'ir kasallangan shaxsga ruhiy jarohat yetkazish yo'li bilan hayotidan mahrum qilish) ta'sir o'tkazishda ifodalanadi.

Hayotga qarshi jinoyatlar moddiy tarkibli bo'lib, uni tugallangan deb topish uchun jabrlanuvchining o'limi sifatidagi oqibat ro'y bergan bo'lishi lozim (faqat istisno tariqasida Jinoyat kodeksi 103 va 103-1-moddalarida o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilish tugallangan qilmish sifatida belgilangan). Hayotga qarshi jinoyatlarning subyektiv tomoni qasd (JK 97–101-m., 103 m.) yoki ehtiyotsizlik (JK 102-m.) da ifodalanishi mumkin.

Hayotga qarshi jinoyatlarning subyekti 16 yoshga to'lgan aqli raso har qanday jismoniy shaxs bo'lishi mumkin. Ayrim jinoyatlar uchun (JK 97, 98-m.) 14 yoshdan javobgarlik belgilangan. Hayotga qarshi ayrim jinoyatlarning subyektlari maxsus

³ <https://lex.uz/docs/-111453>

belgilarga ega. Masalan, chaqaloqning onasi (JK 99-m.).

Shaxsga qarshi jinoyatlar nafaqat huquqbuzarlik, balki inson hayoti va jamiyat barqarorligiga jiddiy zarar yetkazuvchi muammo hisoblanadi. Ushbu jinoyatlar shaxsning huquqlari va erkinliklarini poymol qilishi, jamiyatda qo'rquv va beqarorlik kayfiyatini yuzaga keltirishi bilan xavflidir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bunday jinoyatlarning sabablarini faqat qonunchilikdagi kamchiliklar yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar bilan izohlashning o'zi yetarli emas. Bu jinoyatlar ko'pincha oilaviy, ma'naviy va psixologik omillar bilan ham bog'liq bo'lib, ularni oldini olish kompleks chora-tadbirlarni talab qiladi. Shaxsga qarshi jinoyatlarning oqibatlarini individual darajada jabr ko'rgan insonlarning ruhiy va jismoniy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatsa, kengroq miqyosda jamiyatdagi ishonch muhitini zaiflashtiradi. Jabrlanuvchilar ko'pincha adolatni tiklashda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa huquq tizimining kuchsizligi haqidagi tasavvurni mustahkamlaydi. Shu sababli, bu muammoga qarshi kurashda qonunchilikni takomillashtirish bilan bir qatorda, ijtimoiy adolatni ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Jamiyatdagi shaxs xavfsizligini ta'minlashning muhim vositalaridan biri bu ta'lim va xabardorlikni oshirishdir. Aholining huquqiy madaniyatini rivojlantirish orqali jinoyatlarning oldini olish mumkin. Shu bilan birga, davlat tomonidan ta'minlanadigan ijtimoiy dasturlar, masalan, zo'ravonlikdan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish markazlari, ishsizlikni kamaytirish bo'yicha tadbirlar va sog'lom oilaviy muhitni shakllantirishga qaratilgan dasturlar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, jinoyatlarni tergov qilish va sud jarayonlarini adolatli va shaffof o'tkazish orqali jabrlanuvchilarning ishonchini mustahkamlash kerak. Jinoyatchilar uchun jazo muqarrar ekanligini ko'rsatish huquqbuzarliklar sonining kamayishiga yordam beradi. Kelgusida jamiyat va davlat birgalikda jinoyatlarga qarshi kurashni kuchaytirishi zarur. Huquqni muhofaza qilish organlari, ta'lim muassasalari va nodavlat tashkilotlarning hamkorligi orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Har bir fuqaro shaxs xavfsizligini ta'minlash jarayonida ishtirok etishi lozim. Bu nafaqat qonunlarning bajarilishi, balki jamiyatdagi ijtimoiy birdamlik va mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirishni ham talab qiladi. Shunday qilib, shaxsga qarshi jinoyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish inson huquqlari himoyasi, jamiyat barqarorligi va huquqiy davlat qurilishining asosiy shartidir. Har birimiz bu jarayonga o'z hissamizni qo'shishimiz, huquq va adolatni mustahkamlashda faol ishtirok etishimiz kerak. Faqat shundagina xavfsiz va farovon jamiyatni yaratish mumkin bo'ladi. Shaxsga qarshi jinoyatlar – jamiyatning asosiy huquqiy va axloqiy tamoyillariga zid bo'lgan og'ir jinoyatlardir. Bunday jinoyatlar nafaqat alohida shaxslarning huquqlari va erkinliklariga tahdid soladi, balki butun jamiyatning barqarorligi va xavfsizligini izdan chiqaradi. Ushbu jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish har bir fuqaroning huquqiy madaniyatini oshirish, qonunlarni qat'iy amalga oshirish hamda ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlash bilan uzviy

bog'liqdir. Huquqiy tizimni takomillashtirish, ijtimoiy ongini yuksaltirish va har bir shaxsning daxlsizligini himoya qilish orqali biz jinoyatlar sonini kamaytirish va insonlarning tinch, farovon hayotini ta'minlashga erisha olamiz. Shaxsning hayoti, sog'lig'i va sha'ni davlat va jamiyat tomonidan alohida e'tibor bilan qo'riqlanishi kerak, chunki ular har bir insonning ajralmas huquqlari sifatida himoyalanişga loyiqdir. Shaxsga qarshi jinoyatlar insonning asosiy huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi eng og'ir jinoyat turlaridan biri hisoblanadi. Bunday jinoyatlar nafaqat jabrlanuvchining hayoti, sog'lig'i yoki sha'ni kabi daxlsiz huquqlariga zarar yetkazadi, balki butun jamiyatda adolat, xavfsizlik va tinchlik muhitini buzadi. Shu bois, bunday jinoyatlarning oldini olish jamiyat va davlat uchun ustuvor vazifa bo'lib qolishi zarur. Jinoyatlarning oldini olish uchun huquqiy tizimni kuchaytirish, odil sudlovni ta'minlash va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini yanada samarali tashkil etish muhimdir. Shu bilan birga, fuqarolar orasida huquqiy savodxonlikni oshirish, jinoyatlarga nisbatan murosasiz munosabat shakllantirish va shaxsiy mas'uliyatni targ'ib qilish dolzarb masaladir. Har bir fuqaroning daxlsizligini ta'minlash – bu faqat davlatning emas, balki jamiyatning ham birgalikdagi burchidir. Inson huquqlarini hurmat qilish, jinoyatchilikni bartaraf etish va adolatni qaror toptirish orqali biz jamiyatda ishonch va barqarorlikni ta'minlaymiz. Faqat adolat va qonun ustuvor bo'lgan muhitda inson o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishi, oila va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi mumkin. Shu sababli, har birimiz shaxsga qarshi jinoyatlar haqida xabardor bo'lib, ularni bartaraf etishga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. Bu esa insonparvarlik va qonuniylik tamoyillarini mustahkamlash, tinch va farovon jamiyat qurishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi
3. <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/459675/5af510f270565.pdf>
4. <https://lex.uz/docs/-6445145>
5. M.H. RUSTAMBOYEV, B.J. AHROROV JINOYAT HUQUQI (MAXSUS QISM)
6. <https://lex.uz/docs/-111453>